https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

O‘ZBEK MAKTABLARIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUV IZOHLI LUG‘ATLARGA ZARURAT QAY DARAJADA?

Ahmedova Matluba Abdisalom qizi

ORCID ID: 0000-0002-1849-9554

E-mail: eziyolayev@gmail.com

+99893 248 00 59

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Chirchiq Filiali Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i. Chirchiq 111718, O‘zbesistan Respublikasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon o‘quv lug‘atchiligi yutuqlari qisman tahlil qilinib, o‘zbek maktablaridagi holat bilan taqqoslab o‘rganilgan. Bu jarayonda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari darsliklari qisman tahlilga tortildi. Tahlilni amalga oshirish uchun 3-sinf o‘quvchilarga matematika va tabiat-shunoslik darsliklaridan nusxalab olingan ayrim matnlar taqdim qilindi va tushunmagan so‘zlaringizning tagiga chizing topshirig‘i berildi. O‘quvchilarning kata qismida tushunilmagan so‘zlar soni biz kutgandan ko‘proq chiqdi. Demak bundan anglash mumkinki o‘quvchilarda o‘qilgan matnni tushunish jarayoni to‘liq amalga oshmaydi. Bundan xulosa qilish mumkinki maktab o‘quvchilari o‘quv lug‘atlariga muhtoj. Bu fikr professor H.Ne’matov tomonidan takidlanganiga esa ancha yillar bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: o‘quv lug‘ati, maktab lug‘atlari, o‘qib tushunishdagi muammo-lar, lug‘atchilik tarixi, jahon lug‘atchiligi.

Аннотация. В данной статье частично анализируются достижения мировой образ-овательной лексикографии и сравниваются с ситуацией в

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

узбекских школах. В этом процессе частично анализировались учебники для учеников начальной школы. Для проведения анализа учащимся 3-го класса были предложены тексты, переписанные из учебников по математике и естественным наукам, и им было предложено подчеркнуть непонятные им слова. Количество слов, которые не были поняты большинством учащихся, оказалось выше, чем мы ожидали. Это говорит о том, что учащиеся не до конца понимают читаемый текст. Из этого можно сделать вывод, что школьникам необходимы учебные словари. Эту мысль много лет назад подчеркивал профессор Х. Нематов.

Ключевые слова: учебный словарь, школьные словари, проблемы понимания прочитанного, история лексикографии, мировая лексикография.

Annotation. This article partially analyzes the achievements of world educational lexicography and compares them with the situation in Uzbek schools. In this process, textbooks for primary school students were partially analyzed. To conduct the analysis, the 3rd grade students were presented with some texts copied from math and science textbooks and were asked to underline words they did not understand. The number of words that were not understood by the majority of students was higher than we expected. This suggests that the students are not fully understanding the text they are reading. From this we can conclude that schoolchildren need educational dictionaries. This idea was emphasized by Professor H. Nematov many years ago.

Key words: educational dictionary, school dictionaries, reading comprehension problems, history of lexicography, world lexicography.

Kirish. Bugungi kunga kelib o‘quv lug‘atchiligini rivojlantirish davlat ahamiyati darajasiga ko‘tarilmoqda. Endilikda leksikografiya fani oldiga ta’limdagi mavjud lug‘atlar asosida uzluksiz ta’limning barcha bosqichlari uchun o‘quv izohli lug‘atlarini yaratish vazifasi qo‘yil-moqda.[1.28] Bugungi tezkor va shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda o‘quv lug‘atlarining nafaqat kitob holida chop etilishi, balki elektiron tarzda jahon hamjamiyati uchun ochiq formatda

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

yaratilishi til siyosatining muhim belgilaridan biridir. Lug‘atlar qanday mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-marifiy, iqtisodiy rivojlanishining ramziy timsoli. Lug‘atning paydo bo‘lishi unga ehtiyoj tug‘diradigan muhitning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Aniqrog‘i muayyan davrda lug‘atchilikning taraqqiy etishi shu davrda mamlakatning ham taraqqiy etganidan darak beradi.[2.51] Bizga ma’lumki “o‘quv lug‘atlari’’ asosan maktab ta’limi uchun yaratiladi. Bu tur lug‘atlarning ikkinchi nomi “maktab lug‘ati’’ deb ham yuritiladi. Shuning uchun o‘quv lug‘atlari maksimal darajada ta’limga yo‘naltirilgan bo‘ladi. O‘quv lug‘atchiligi leksikografiya va pedagogika oralig‘idagi amaliy fan ekanligini ko‘plab olimlar takidlashadi. O‘quv lug‘atlarining eng muhim belgilaridan biri hajman chegaranganligidir. O‘quv lug‘atidan “zaruriy va yana faqat zaruriy ma’lumot"lar joy oladi. “O‘quv lug‘ati’’ shu tipdagi katta lug‘atni qisqartirish yo‘li bilan yaratilmaydi. Shuningdek estetik didga moslik, qo‘shimcha materiallar (grammatik topshiriq, test, mashq, o‘yin, she’r, elektron lug‘atlar, multimediya, ovoz) bilan boyitilishi ham o‘quv lug‘atining harakterli belgisi hisoblanadi deb yana quyidagi fikirlarni beradi B.Bahriddinova.[2.65]”Demak, so‘zligi ma’lum bir mezon asosida tartiblangan, o‘quv uslubiy talabga javob beradigan, ta’lim oluvchining kommunikativ kompitensiyasini shakillantirishga xizmat qiladigan, ma’lumotni tezkor va qulay taqdim etishga mo‘ljallangan antroposentrik vositaga o‘quv lug‘ati deyiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bugungi kunda jahonning ilg‘or mamlakatlarida o‘quv lug‘atchiligi haqida bir qancha nazariy qarashlar va bu yo‘nalishda yaratilgan bir qator lug‘atlarni o‘rganishga harakat qildik. Ko‘plab Yevropa davlatlari, shuningdek bir necha turkey tilli davlatlarda ham o‘quv lug‘atchiligi sohasi havas qilarli darajada rivojlanganligiga kuzatishlarimiz natijasida guvoh bo‘ldik. Ta’limning barcha bosqichlari uchun mos tarzda o‘quv lug‘atlarining turli seriyalari yaratilganligi havas qilsa arzigulik holat.

Xo‘sh bizdachi? degan savol tug‘ilishi tabiiy holat.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

1. O‘zbek maktablari uchun o‘quv izohli lug‘atlari qanchalik zarur yoki aksincha?

2. Bugun XXI asrning 1-choragida o‘quv lug‘atchiligi qay holatta?

Maktab talimida o‘quv izohli lug‘atlardan samarali foydalanish o‘quvchining ta’lim dasturidagi barcha fanlarni yaxshi o‘zlashtirishiga yordam beradi. Chunki maktablar uchun darslikk yordamchi vosita sifatida yaratiladigan o‘quv lug‘atlari o‘quv izohli lug‘at sifatida yaratiladi va maktab ta’limidagi barcha fan darsliklaridagi, Davlat ta’lim standartida belgilangan mustaqil o‘qish uchun tavsiya qilingan barcha vositalardagi o‘quvchi ma’nosini yaxshi tushunmaydigan so‘zlarning izohi beriladi. O‘quv izohli lug‘atlarga qo‘yiladigan xalqaro talablarga javob beradigan maktab lug‘atlari hozircha bizda mavjud emas. Ingliz, rus, turk, fransuz, nemis, ispan, ozarbayjon, qozoq tillarida yaratilgan ayrim maktab lug‘atlari bilan tanishishga muvaffaq bo‘ldik va jahonning ko‘plab davlatlarida hozirgi kunda o‘quv lug‘atchiligi sohasi yuksak rivojlanganini ko‘rish mumkin. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda maktab o‘quvchilari uchun yaratilgan o‘quv lug‘atlari soni ham ortib bormoqda. Qarshi Davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakultetining bir qancha professor-o‘qituvchilari sayi-harakatlari natijasida “Yangi asr avlodi” nashriyotida ko‘plab lug‘atlar nashr etildi.Bularga misol qilib B. Mengliyev va B.Bahriddinovalarning “O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati”, O.Shukurov, B.Boymatovning. “O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati”, T. Nafasov va V. Nafasovalarning “O‘zbek tilining talaffuzdosh so‘zlar o‘quv lug‘ati”, N. Ochilov va T.Kenjayevlarning. “Folklorshunoslik termenlarining o‘quv izohli lug‘ati”, A.Hojeyevning “Tilshunoslik terminlarning izohli lug‘ati”, T. Nafasov va V. Nafasovalarning “O‘zbek tilining o‘quv toponimik lug‘ati”, N.Mahmudovning “So‘z sandiqchasi”, D.A.Xudayberganovaning “Lengvokulturalogiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati”, U. To‘rayeva D. Shodmonova “O‘zbek tilining zid ma’noli so‘zlar o‘quv lug‘ati”, B.Mengliyev va M. Xudoyberdiyevaning “O‘zbek tili iboralari o‘quv lug‘ati”, Islomov I. Bobojonov Sh. “O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati”,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

X.Norxo‘jayevaning “O‘zbek tilining eskirgan so‘zlar o‘quv lug‘ati”, Xamrayeva Y “O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv lug‘ati”, X.Suvonova va G.Turdiyevaning “O‘zbek tilining shakldosh so‘zlar o‘quv lug‘ati”, mualliflar jamoasi tomonidan yaratlgan “Ona tili. Qomus” kitobi[2.125] kabi o‘quv lug‘atlari yaratilgan. Ushbu o‘quv lug‘atlarining yaratilganligi tilshunosligimiz uchun yaxshi natija albatta. Biroq ularning kopchiligining auditoriyasi aniq emas, masalan boshlang‘ich sinflar uchun ,tayanch sinflar uchun, yuqori sinflar uchun yoki talabalar uchun deb aniq yozib qo‘yilmagan va umumiy xarakterga egligi lug‘atlarning nomidanoq seziladi. Ushbu lug‘atlarning aksariyat mualliflari lug‘atchilar, lekin hammasi ham emas.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbek tilshunosligida o‘quv izohli lug‘atlar tuzish g‘oyasi tilshunos H.G‘.Ne’matov nomi bilan bog‘liq. Hamid Ne’matov Ayyub G‘ulomov bilan hamkorlikda yozgan va 1995 yilda chop etilgan “Ona tili ta’limi mazmuni”kitobida maktab o‘quvchilari uchun ona tili darsliklariga yordamchi qo‘llanma sifatida o‘quv lug‘ati ham bo‘lishini takidlagan. Kitobda o‘quv lug‘atlarining ro‘yxati ham berilgan. Eng ahamiyatlisi shundaki, ushbu ro‘yxatning eng avvalida “ O‘zbek tilining o‘quv izohli lug‘ati”qayd etilgan.[7.46] H.Ne’matov ushbu fikrlarni bayon qilganiga qariyb 30 yil bolipti, biroq bu soha haligacha qoniqarli darajada rivojlanmadi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida esa bizdan ancha yillar,hatto asrlar oldin o‘quv lug‘atlarini yaratishga, ta’limning yordamchi vositasiga aylantirishga bo‘lgan harakatlar boshlangan va jadal rivojlangan edi. Bizda esa yuqorida takidlaganimizdek tilshunoslikning bu yo‘nalishiga XX asrning boshlarida ilk nazar tashlandi. Shundan buyon sekin astalik bilan rivojlanib kelmoqda. Ungacha asosiy e’tibor ikki tilli lug‘atlarni yaratishga qaratilgan. Buning sababi hammamizga malum bo‘lgan mustamlaka siyosati va jiddiy cheklovlar bo‘lganligidir. Mustaqilikka erishganimizdan so‘ng boshqa sohalar qatorida tilshunoslikda ham asta sekin siljishlar bo‘la boshladi. Tilshunos olimlar chet tillarini o‘rganish, aqliy salohiyatni rivojlantirish, o‘z mustaqil fikrini aniq va ravon ifodalash uchun o‘quvchining so‘z boyligi yuqori

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

darajada bo‘lishi va har bir so‘z ifodalagan tushunchani miyyamizning til xotirasida saqlab faol istimolda qo‘llanilishi uchun o‘quv lug‘atlar eng muhim vosita ekanligi ko‘p bor takrorlanadi. Xususan filologiya fanlari doktori professor B.Bahriddinova bu haqda quyidagi fikrlarni keltiradi. XX asrning boshlariga kelib ko‘pgina rivojlangan davlatlarda nafaqat til o‘rganish, balki intellektual salohiyatga ega, yuksak ma’naviyatli, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxsni tarbiyalashning muhim vositasi deb “o‘quv lug‘atlari”[2.110] tan olindi . Dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida maktab yoshidagi foydalanuvchilar uchun o‘quv lug‘atlari aynan foydalanuvchisi uchun mos maxsus seriyalari, hattoki janrlari paydo bo‘ldi. Bularga misol qilib: “School dictionary”, “Children’s dictionary”, “Learning dictionary”, “Collins school dictionary”, “Macmillian school dictionary”, “Merriam Webster’s school dictionary”, “Scholastic children’s dictionary”, “Dictionary for kids”, “Учебный словарь”, “Школьний словарь”, “Словарь школьника”, “Словари и справочники для детей”, **“**Энциклопедия в картинках”,**“**Энциклопедия юного ученого”, “Твоя первая энциклопедия”, “Kindle Edition”, “Booculchacha”, “Ақылды балапан”, “Ең алғашқы сөздік”[152] kabi lug‘at janrlari butun dunyoga mashxur bo‘lib bormoqda. Takidlab o‘tish kerakki tildagi jadal rivojlanishlar yoki rivojlanmaslik o‘sha til egalari yashaydigan davlatning tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘ladi. Lug‘atchilik sohasi eng kuchli rivojlangan davlatlarning aksariyati uzoq yillar davomida boshqa mamlakatlar ustidan mustamlaka siyosatini olib brogan davlatlar ekanligi ma’lum. Bizning oldimizda turgan asosiy vazifa kelajakda yaratiladigan “O‘zbekona o‘quv lug‘at ”larini maktabgacha va maktab ta’limi, shuningdek oliy talim bosqichi foydalanuvchilarining barcha yosh toifalari kesimida o‘quv lug‘atining jahon standartlariga to‘laqonli javob beradigan va albatta milliylik ruhi ufirib turadigan o‘quv lug‘atlarning loyihalarini yaratish va mazkur loyihalar asosida lug‘at maxsulotlarini nashr qilishdir.

Tahlil va natijalar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining istalgan darsligiga nazar tashlasak o‘quvchi birinchi marta duch kelganda ma’nosini umuman

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tushunmaydigan so‘zlar juda ko‘p uchraydi. Bu esa o‘quvchilarda o‘qib tushunish ko‘nikmasining nihoyatta pastligiga, har xil ijtimoiy muammolarga sabab bo‘lmoqda. Maktab o‘quvchilari orasida o‘tkazilgan kichik bir tajriba natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi. 4-sinf tabiatshunoslik kitobida Yer sayyorasi haqida quyidagi matn berilgan.

Yer.

Biz yashaydigan Yer ham Quyosh atrofida aylanib yuruvchi **sayyora**lardan biridir. Sayyoramiz quyosh atrofini 365 **sutka** 6 soatda bir marta aylanib chiqadi. **Quyosh sistemasi**dagi mavjud 8 ta sayyoradan faqat Yerda hayot bor. Faqat bizning sayyoramizdagina hayot uchun **sharoit** mavjud. Yer va boshqa sayyoralarning atrofida **osmon jismlari** aylanib yuradi. Sayyoralardan Merkuriy va Veneraning **tabiiy yo‘ldoshlari** yo‘q.[6.42] Chirchiq shahridagi 15-IDUMning 4B-sinf o‘quvchilariga ushbu matn oq qog‘ozga chiqarilgan holda tarqatildi va ma’nosini tushunmagan so‘zingizning tagiga chizing degan topshiriq berildi.Natijada 80% o‘quvchilarda yuqorida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni tushunmaslik holati aniqlandi.Xuddi shu sinfda aynan shu metod matematika fanida ham qo‘llandi.

O‘rta arifmetik qiymatni topish.

Anvar bilan Ulug‘bek yog‘och **g‘o‘la** bo‘lakchasini kim uzoqroqqa otish bo‘yicha musobaqalashishdi. Ularning har biri besh martadan uloqtirgandan so‘ng, o‘z natijalarini **taqqoslay** boshlashdi. Anvarning natijalari: 9 m, 14 m, 9 m, 15 m, 13 m. Ulug‘bekning natijalari: 10 m, 15 m, 11 m, 10 m, 9 m. Bolalardan har biri o‘zini g‘olib hisoblamoqda. Nima deb o‘ylaysiz, ular qanday natijalariga ko‘ra o‘zlarini g‘olib sanamoqdalar? Yechish. Ma’lum ko‘rsatkichlar bo‘yicha ularning ikkisi ham haq. Biroq g‘olibni aniqlash uchun, odatda, natijalarning o‘rta **arifmetik qiymatidan** foydalaniladi. O‘rta arifmetik qiymatni topish uchun sonlarning yig‘indisini hisoblash, keyin esa bu yig‘indini qo‘shiluvchilar soniga bo‘lish kerak. Anvar ko‘rsatgan natijalarning o‘rtacha qiymati: (9 + 14 + 9 + 15 + 13) : 5 = 60 : 5 = 12 (m). Ulug‘bek ko‘rsatgan natijalarning o‘rtacha qiymati: (10 +

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

15 + 11 + 10 + 9) : 5 = 55 : 5 = 11 (m). Natijalarning o‘rtacha arifmetik qiymati bo‘yicha Anvar g‘olib.[5.51] Natija 85% o‘quvchilar ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning manosini tushunmaganliklarini belgilab ko‘rsatishdi.Boshlang‘ich sinf darsliklarida bu turdagi o‘quvchi ma’nosini tushunmaydigan so‘zlar nihoyatta ko‘p uchraydi. Tayanch sinflarda ham matnni o‘qib tushunish bo‘yicha bo‘shliqlar mavjud.

Masalan O‘zbekiston 2022- yilda ilk bor Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi (PISA)da ishtirok etdi va test natijasiga ko‘ra oxirgi o‘ntalikdan joy oldi. Ushbu dastur 15 yoshli o‘quvchilarning matematika, o‘qish savodxonligi va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini baholaydi**.**

Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi (PISA) 2022-yilgi natijalari mamlakat ta'lim tizimining muammolari va imkoniyatlarini ochib berdi. Jumladan, natijaga ko‘ra, 14% o‘quvchi matnning asosiy ma'nosini aniqlay oladi va murakkab vazifalarni bajaradi.[2.110] Bu esa umumiy savodxonlik darajasining pastligini ko‘rsatadi.

O‘qish savodxonligi asosiy ko‘nikma sifatida ta’lim dasturidagi barcha fanlar: tabiiy fanlar, gumanitar fanlar va aniq fanlarni yaxshi o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Negaki o‘quvchining darslik matnni tushunishi, undagi birlamchi ma’lumotlarni va asosiy fikrlarni ajrata olishi va mantiqiy tahlil qilish qobiliyati boshqa sohalarda muvaffaqiyatga erishish uchun asos yaratadi. Bu, o‘z navbatida, o‘qish savodxonligi bilan bog‘liq muammoning yechimi dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

O‘qib tushunsh ko‘nikmasi qoniqarsiz darajada ekanligini ko‘rsatuvchi yana bir yaqqol misol – bugun O‘zbekistonda yoppasiga ommalashayotgan,umumtalim fanlaridan biri bo‘lgan ona-tili va adabiyot fanini bilish darajasini ko‘rsatuvchi “Milliy sertifikat”ni olish uchun talabgorlarning o‘qib tushunish, yozish ko‘nikmalari tekshiriladi. O‘qib tushunish va yozish bir-biriga bog‘liq. Xuddi shuningdek tinglab tushunish va gapirish ham bir-biriga bog‘liq jarayonlardir.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Maxsus tayyorgarlik ko‘rilmasa fan o‘qituvchilarining o‘zlari ham bu sinovlarda qoniqarli natija ko‘rsatolmayotgani ayni haqiqat. Bu muammolarning ildizida esa:

–uzluksiz ta’limning maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim va o‘rta ta’limda umuman lug‘at ishiga ahamiyat berilmasligi;

–o‘quvchining lisoniy zahirasi nihoyatta qashshoqligi;

–faqat eng zarur, o‘ta faol so‘zlardangina foydalanishi;

–nofaol so‘zlarni faol nutqqa olib chiqishga deyarli e’tibor berilmasligi kabi ko‘plab sabablar mavjud.

Ushbu muammolar uzoq yillar davomida rivojlanib, chuqur ildiz otib bugungi natijalarni ko‘rsatib turipti. Bu muammolarga ijobiy yechimlar berish uchun keng qamrovli islohotlar talab qilinishi aniq. Yechimlardan biri sifatida maktabgacha va maktab ta’limi uchun barcha yosh davrlariga mos keladigan alohida – alohida o‘quv izohli lug‘atlarni, jahon standartlari talabi darajasida yaratib ta’lim tizimiga joriy qilish muammoning kichik bir qismini hal qiloladi. Leksikografiyaning asosiy vazifasi ta’limni yaxshilashga yordam berishdir.Odatda nazariy va amaliy leksikografiya farqlanadi. Bu terminlarni o‘zbek tilidagi lug‘atshunoslik va lug‘atchilik termilarining muqobillari sifatida tushunish mumkin. Dastlabki lug‘atlar foydalanish jihatidan umumlashgan (hammabp) va mazmun mundarijasi jihatidan kontekstual xarakterga ega bo‘lgan. Boshqacha aytganda ular sotsial yoki professional xoslanmagan bo‘lin ma’lum bir matnlarni o‘qib tushunish imkonini berish xususiyati bilan xarakterlanadi.[4.6] Ko‘pgina olimlarning tadqiqot natjalaridan ko‘rinadiki dastlabki lug‘atlar o‘quv lug‘ati xarakterida bo‘lib so‘zning ma’nosini ommaga tushuntirishni maqsad qilgan. Bugungi zamonaviy o‘quv lug‘atlarining maqsadi ilk lug‘atlarga yaqin, ammo bugungi o‘quv lug‘atlarida sotsial xoslanganlik, professional xoslanganlik, aniq auditoriyaning ko‘rsatilishi, so‘zga beriladigan izohlar, illstratsiyalar, lug‘at maqolalarning psixologik, pedagogik, lingvistik xoslanganligi kabi qator ideal talablari mavjud bo‘lib, bu ilm-fanning rivojlanayotganidan dalolat beradi. O‘quv lug‘atlarining amaliy ahamiyati tilni o‘qitishni osonlashtirish bo‘lsa, “o‘quv izohli

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

lug‘atlar” ning vazifasi o‘quvchiga har bir so‘zning “mag‘zini chaqib” muayyan bir so‘zdan qaysi vaziyatda foydalanish ko‘nikmasini berishi lozim. Zero insonning og‘zidan chiqayotgan so‘z uning ham ma’naviy, ham axloqiy, ham intellektual salohiyatini ko‘rsatib beradi. Bundan rosa bir asr oldin yashagan mashhur fransuz yozuvchisi, akademik, Nobel mukofoti sohibi Anatoliy Frans lug‘atga shunday ta’rif beradi Lug‘at – bu alifbo tartibida joylashtirilgan yaxlit olam! Agar yaxshiroq o‘ylab ko‘rsangiz, lug‘at – kitoblarning kitobi. U boshqa barcha kitoblarni o‘z ichiga oladi, siz shunchaki undan o‘zingizga kerakli narsani topa bilishingiz lozim deb yozgan edi.Anatoliy Fransning bergan ta’rifi “lug‘at” tushunchasi paydo bo‘lgandan to bugungi kunga qadar ham o‘z kuchini saqlab kelmoqda. Lug‘at undan muntazam foydalana bilgan kishi uchun chinakam xazina. Zarur ma’lumotlarni tez va qulay izlab topa bilish zamonaviy shaxsning muhim ko‘rsatkichi. Inson hamma narsani bilishga qodir emas, ammo har qanday vaziyatda bilishi zarur bo‘lgan narsalarni topish imkoniga ega. Lug‘at aynan shu ish uchun maxsus yaratilgan. Bunga misol sifatida XX asr mo‘jizalaridan biri mashhur Vikipediyani keltirish mumkin[2.128] deb yozadi Bashorat Bahriddinova. Yana bir yirik tilshunos olimimiz Professor Hamid Ne’matov leksikografiya sohasida O‘zbekistonda qilinayotgan va qilinishi zarur bo‘lgan ishlar xususida “Axborot asrining tilshunoslikka talabi” nomli maqolasida shunday fikrlarni bildirgan edilar. “Kompyuter texnologiyasi bilan uzviy bog‘liq va sun’iy intellekt ibtidosi bo‘lgan axborot asri tilshunoslik oldiga ikki – biri ommaviy tarzda amalga oshirilayotgan, ikkinchisi amalga oshirilishi zarur bo‘lgan – vazifani qo‘yadi. Amalga oshirilayotgan vazifaning o‘zi ham ikki turli. Ulardan biri axborot bazasini, ya’ni Arastu bobomizdan boshlab shu kungacha jahon tilshunosligida yaratilgan muhim tadqiqotlarni, lug‘at-u, grammatika-yu, darsliklarning elektron variantlarini yaratib, erkin foydalanilishini keng yo‘lga qo‘yish. Ikkinchisi esa, lingvistik (lisoniy) korpuslar, ular asosida WordNetlarning xilma-xil turlarini yaratish va ommalashtirish, til birliklarining nutqiy voqelanishlari chastotasi, lisoniy birliklarning bir-birini almashtira olishi, ayni bir xil qurshovda kela olishi va uning

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

oqibatlari ... kabi hodisalarni empirik tavsif usullarida o‘rganish va natijalarini ommalashtirish kabi hozirgi kunda korpus va kompyuter lingvistikasi G‘arbda katta tezlik, o‘zimizda asta-sekinlik bilan amalga oshirilayotgan ishlardir”[3.9-12] So‘nggi o‘n yillik leksikografiyaning tilshunoslikning eng tez taraqqiy etayotgan va eng tez o‘zgaruvchan sohasi ekanligini yana bir bor isbotladi. Lug‘at – davr mahsuli, xalq tarixidagi muayyan davrning ko‘zgusi. Uning yuzaga kelishi muayyan tarixiy-madaniy sharoit, nazariy va amaliy tilshunoslikning holati, lug‘atlarga ehtiyoji bo‘lgan turli sohalar taraqqiyoti va yana ko‘pgina jihatlarga bog‘liq. Muayyan tilda davrga aloqador turli omillarga bog‘liq ravishda lug‘atlarning rang-barang ko‘rinishlarining yuzaga kelishi, umuman, lug‘atchilik taraqqiyoti – til va uning egasi bo‘lgan millatning taraqqiyoti bilan bog‘liq, uning porloq kelajagi haqida gapirish imkonini beradi[2.22]. O‘sib kelayotgan avlodni ma’naviy barkamol, hozirjavob, mustaqil fikrli, izlanuvchan, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalash talabi o‘quv lug‘atlarining zamonaviy ko‘rinishlariga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Shu sababli bugungi kunda o‘quv lug‘atchiligi tarmog‘ini ilmiy asosda rivojlantirish, o‘quv lug‘atlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish tilshunoslikning dolzarb vazifasi sifatida kun tartibiga qo‘yishni talab etayotgan masaladir.[8.12] Mustaqillikka erishganimizdan so‘nggi yillarida yaratilgan o‘quv lug‘atlarida ona tili va boshqa xorijiy tillarni, milliy tilning leksik qatlamlarini, yozma va og‘zaki nutq meyorlarini o‘rganish, o‘quvchilarning so‘z boyligi, tafakkurini kengaytirish, yozma savodxonligini oshirish bosh vazifa qilib olingan bo‘lsa, ayni paytda o‘quv leksikografiyasi oldida davr talablaridan kelib chiqib yangi avlod o‘quv lug‘atlarini yaratish, mavjud lug‘atlarni kompyuterlashtirish bilan bog‘liq vazifalar yechimini amalga oshiradigan jonkuyar tadqiqotchilarni kutmoqda.

Xulosa. Shunday ekan biz ham ta’lim sohasini rivojlantirmoqchi bo‘lsak lug‘at yaratish masalasiga jiddiy qarashimiz lozim. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasini o‘rganib milliy qadriyatlarimizga moslashtirgan holda barcha yoshdagi foydalanuvchilar uchun hayotning barcha jabhalarini qamrab

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

oladigan turfaxil lug‘atlar yaratishimiz bugunning va kelajakning talabidir. Elektron lug‘atlar yaratish ularni keng jamoatchilikka havola qilish bugun zamon va ilm-fanning talabi. Lekin maktabgacha va maktab ta’limi bosqichidagi har bir o‘quvchining qo‘lida o‘z shaxsiy lug‘at kitobi bo‘lishi maqsadga muvofiq. Sohani rivojlantirishda eng kata muammolar bu moliyalashtirish va haqiqiy lug‘atshunos kadrlarning yetishmasligi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ahmedova M. Boshlang‘ich snf o‘quvchilari uchun o‘quv izohli lug‘at tuzish metodikasi: Magestirlik diss. − T.,2023. − 28b.

2.Bahriddinova B.M.O‘zbekistonda o‘quv lug‘atchiligi: lingvestik asoslari,tarixi va istiqbollari: F.f.d(DSc)diss.-Samarqand.2020.,

3.Неъматов Ҳ., Турсунова О. Ахборот асрининг тилшуносликка талаби // Филология масалалари: Илмий ва илмий-методик маколалар тўплами. –Тошкент: Фан, 2013. – Б.9-12

4.Mengkiyev.B. va b.Leksikografiya va terminografiya:ma’lumotlar bazasi va semantizatsiyasi.Jamoaviy monografiya.T:,-2024.– 6 b.

5.Matematika 4-sinf uchun darslik.„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi toshkent — 2020.b-51.

6.Tabiatshunoslik 4-sinf uchun darslik. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent–2020. B-14.

7.Ғуломов А.,Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. (Она тили ўқитувчилари учун методик қўлланма)-Тошкент:.Ўқитувчи,1995. -46б.

8.Hasanov A.M. O‘zbek tilidagi leksik bo‘shliqlarni to‘ldirish masalalari (so‘nggi yuz yillik misolida).// O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 3 (50). — B. 7-15.

9. Rahimov R. Surxondaryo o‘zbek shevalari lug‘ati. – Denov, 1993.

10. Solovyeva, E. (2019). Rare and uncommon vocabulary as a pragmatic tool of modern French political discourse. NSU Vestnik. Series:

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Linguistics and Intercultural Communication. https://doi.org/10.25205/1818-7935-2019-17-4-92-107

11. Xolmanova Z. “Boburnoma” leksikasi tadqiqi: Filol. Fan.dokt...diss.avtoref. Toshkent, 2009. – 52 b..

12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jild. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. – 2020. – 591 b. – 40 B

13. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. – 2020. – 679 b. – 268 B

4.The 80/20 Principle: The Secret of Achieving More with Less. Richard Koch. Nicolas Brealey Publishing. London. 1998. P14

15.The Relationship Between Passive and Active Vocabularies: Effects of LanguageLearning Context. Language Learning, 48, 365-391. https://doi.org/10.1111/0023-8333.00046.

Elektron manbalar:

https://m.kun.uz/news/2023/12/07/pisa-natijalari-elon-qilindi-ozbekistonlik-oquvchilar-oxirgi-10-talikdan-joy-oldi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F12%2F07%2Fpisa-natijalari-elon-qilindi-ozbekistonlik-oquvchilar-oxirgi-10-talikdan-joy-oldi